



TO'QIMACHILIK SANOATINING O'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.

*Urganch Davlat universiteti, "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" fakulteti
tayanch doktaranti, email: feruz@urdu.uz
orcid: 0000-0002-2325-8173*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE TEXTILE INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN

Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.

*PhD student of Urgench state university, Faculty of "Socio-Economic Sciences",
Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.
email: feruz@urdu.uz
orcid: 0000-0002-2325-8173*

JEL Classification: F44

Annotatsiya. O'zbekistonda to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Butarmoq paxta xom ashyosini qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratish, ish o'rirlari yaratish, eksportni rag'batlantirish va byudjetga tushumlarni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. To'qimachilik sanoati O'zbekistondagi ko'plab qishloq aholisi uchun daromad manbai hisoblanib, xom ashyo resurslaridan to'liq foydalanish imkonini ham beradi.

Shuningdek, to'qimachilik sanoati iqtisodiy o'sishda diversifikasiya jarayonlarini rivojlantirish, ichki va tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali sanoatni modernizasiya qilishda ham muhim rol o'yndaydi. Bundan tashqari, to'qimachilik mahsulotlarining tashqi bozorlarga eksport qilinishi mamlakat valyuta zaxiralarini ko'paytirishga hissa qo'shadi. Demak, to'qimachilik sanoati O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va milliy

iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymatni shakllantirishda o'ziga xos o'ringa ega.

To'qimachilik sanoati O'zbekiston milliy iqtisodiyotida turli sohalar bilan bog'liq tarmoqlararo hamkorlikni ta'minlab, iqtisodiy taraqqiyotga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda paxta etishtirilishi va uni qayta ishlashning rivojlanishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yuqori sifatli xom ashyoni arzon narxlarda etkazib berish imkonini beradi, bu esa mahsulotlarning tannarxini pasaytirishga, raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish bilan bog'liq kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yordam beradi, ish o'rirlarini ko'paytirish orqali aholi turmush darajasini oshiradi.

To'qimachilik sanoatining eksport salohiyati ham ahmiyatga molik bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun valyuta tushumlarining asosiy manbalarida biri hisoblanadi. Juhon bozorida o'zbek to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi milliy mahsulotlarning xalqaro maydonda tan

olinishini ta'minlaydi. Shuningdek, bu tarmoqda zamonaviy texnologiyalar va innovasiyalarni joriy etish orqali mahsulot turlarini kengaytirish hamda energiya va resurslarni tejash kabi ustuvor yo'nalishlarda ish olib borilmoqda, bu esa milliy sanoatning barqaror rivojlanishiga va uning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, to'qimachilik sanoati nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik, ish bilan ta'minlash va mintaqaviy rivojlanish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada mamlakatimiz to'qimachilik sanoati tahlil qilib o'r ganib chiqilgan. To'qimachilik sanoatining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotidagi ahamiyati, rivojlanish imkoniyatlari, to'qimachilik sanoatidagi imkoniyatlar, mamlakat iqtisodiyotidagi to'qimachilik sanaotining ahamiyati o'r ganib tahlil qilib chiqilgan.

Abstract. The textile industry in Uzbekistan is one of the most important sectors of the national economy. This network is instrumental in creating high value-added products through the processing of cotton raw materials, creating jobs, promoting exports and increasing budget revenues. The textile industry is considered a source of income for many rural residents in Uzbekistan, and also allows you to fully use the resources of raw materials.

The textile industry also plays an important role in modernizing the industry through the development of diversification processes in economic growth, the production of competitive products for domestic and foreign markets, the introduction of innovative technologies. In

addition, the export of textiles to foreign markets contributes to the increase of the country's foreign exchange reserves. Therefore, the textile industry has a special place in the sustainable economic development of Uzbekistan and the formation of a high value added in the national economy.

The textile industry has a multifaceted impact on economic development, providing inter-sectoral cooperation in the national economy of Uzbekistan with various industries. The development of cotton cultivation and its processing in the country allows domestic manufacturers to deliver high-quality raw materials at affordable prices, which serves to reduce the cost of products, increase their competitiveness. At the same time, the textile industry contributes to the development of small and medium-sized businesses related to production, increasing the standard of living of the population by increasing jobs.

The export potential of the textile industry is also significant and is one of the main sources of foreign exchange revenues for the economy of Uzbekistan. The growing demand for Uzbek textiles in the world market ensures the recognition of national products in the international arena. It is also working on priorities such as expanding the range of products and saving energy and resources by introducing modern technologies and innovations, which will serve to ensure the sustainable development of the national industry and its international competitiveness.

In this respect, the textile industry is important not only for economic growth, but also for social stability, employment and regional development.

This article analyzes the textile industry of our country. The importance of the textile industry in the economic and social life of the country, development opportunities, opportunities in the textile industry, the importance of the textile date in the country's economy have been studied and analyzed.

This article has been studied in analysis industry in our country. The calculation of the textile industry in the country's economic and social life, the capacity of the development, the textile industry, the importance of textiles in the economy is analyzed.

Kalit so‘zlar. To‘qimachilik, sanoat, ishlab chiqarish, eksport, import, iqtisod, yengil sanoat, trikotaj

Keywords. Textile, Industry, Manufacturing, Export, Import, Economics, Light Industry, Knitwear

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaga modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini kiritish orqali tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar hajmi va turlarini kengaytirish katta ahamiyatga ega. Respublikamizda ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo‘lgan to‘qimachilik korxonalarini faoliyat yuritmoqda, shu bilan birga, mahalliy ehtiyojlarni qondirish maqsadida paxta tolasi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilgan. Biroq, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, tarmoqni boshqarish, resurs va ishlab chiqarish quvvatlarini taqsimlash, kadrlar malakasining yetarli emasligi kabi tizimli muammolar paxta xomashyosining rentabelligi past bo‘lishi, shuningdek, uni

qayta ishslash va tayyor mahsulotlarni eksport qilishning yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash uchun barcha sohalarda rivojlanishga erishish zarur. Xususan, milliy iqtisodiyotda to‘qimachilik sanoati muhim o‘rin egallaydi. Bu sohada to‘qimachilik korxonalarida innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish, investitsiyalarni samarali boshqarish, mahsulot sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish orqali aholining sifatli to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va eksport salohiyatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, mahalliy xomashyolarni chuqur qayta ishslash asosida yuqori qo‘srimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va to‘qimachilik korxonalarini zamonaviy boshqaruv usullari bilan tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir.[1]

Hozirgi kunda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida sanoatni tezkor rivojlanish muhim masalalardan biri sanaladi. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining samaradorligini oshirish, yangi ishlab chiqarish yo‘nalishlarini tashkil qilish, bu hududlarda olib borilayotgan ishlarga yanada sur’at bag‘ishlash va xorijiy hamda mahalliy ishtirokchilar uchun qulay sharoitlarni yuqori darajada yaratish juda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” to‘g’risidagi PF-60 sonli farmoni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2023 yildagi PF-2-sonli “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash,

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning export salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning 22-maqsadida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanaot siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish” vazifasi qo‘yilgan. [2] Ushbu vazifalarni amalga oshirishda sanoat salohiyatini oshirish muhim rol o‘ynaydi.

Material va metod

To‘qimachilik sanoati – bu turli xil o‘simglik, jun va sun’iy sintetik tolalardan gazlama, ip va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yengil sanoat tarmog‘idir. Ushbu sanoat ichiga to‘qimachilik xom ashyosini dastlabki qayta ishlash, ip ishlab chiqarish, zig‘ir, kanop, jut tolalaridan gazlama tayyorlash, shoyi, jun gazlama, noto‘qima materiallar, to‘r to‘qish va trikotaj kabi sohalar kiradi.

To‘qimachilik tolalari ikki asosiy turga bo‘linadi: tabiiy tolalar va kimyoviy tolalar. Tabiiy tolalarga o‘simglik tolalari (masalan, paxta, kenevir, meva tolalari), hayvon tolalari (jun, ipak) va mineral tolalar (masalan, asbestos) kiradi. Kimyoviy tolalar esa qayta ishlangan tolalar, sintetik va noorganik tolalardan iborat. Misol uchun, qayta ishlangan tolalarga viskoza va atsetat tolalari kiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, mavjud adabiyotlar tahlili to‘qimachilik sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilayotganini va raqobatbardoshlik strategiyalarining ko‘plab yetakchi olimlar tomonidan o‘rganilayotganini ko‘rsatmoqda.

Xususan, J.A. Sargasyan yengil sanoatni rivojlantirishni, ushbu sohani tashkiliy, iqtisodiy va texnik jihatdan qayta qurishni kelajakda iqtisodiyotning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida belgilaydi. Sanoat samaradorligini oshirish uchun mamlakatning mavjud salohiyatidan to‘liq foydalanish zarur ekanligini ta‘kidlaydi. [3]

Turkmanistonlik olim S.A. Niyazova o‘z ilmiy maqolalarida to‘qimachilik sanoatini yengil sanoat tarmog‘i sifatida ta‘riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, buyurtmalarni qisqa muddatda tayyorlash va aylanma mablag‘larning tez aylanishi investitsiyalar orqali tez iqtisodiy daromad olish imkoniyatini belgilaydi. Bu yondashuv to‘qimachilik sohasining samaradorligini oshirish va iqtisodiy rivojlanishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. [4]

Edward Noah Abrahard o‘z ilmiy tadqiqotlarida to‘qimachilik sanoatining tarixi va rivojlanishini chuqur o‘rgangan. U, shuningdek, tolalarni ipga aylantirish jarayonlari, mato konstruksiyasi, to‘qimachilikda qo‘llaniladigan pardozlash operatsiyalari va to‘qimachilik materiallaridan foydalanish kabi masalalarni bataysil ko‘rib chiqadi. Abrahard, shuningdek, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq jarayonlarni ham tahlil qiladi, bu esa to‘qimachilik sanoatining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. [5]

N.A. Boltabayeva o‘z ilmiy nashrlarida to‘qimachilik ishlab chiqarishini samaradorligini oshirish uchun boshqaruva qarorlarini qabul qilish jarayonida ishlab chiqarishning texnologik bosqichlarini hisobga olish zarurligini ta‘kidlaydi. U, shuningdek, mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish korxonalarining ijtimoiy-

iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va zaxiralarni maqsadli izlashning ahamiyatini belgilaydi. Bu yondashuv to‘qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.[6]

U.A. Yuldasheva o‘z ilmiy ishlarida soliq yuki darajasini optimal baholanishi bir tomonidan korxonalar moli-yaviy-xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantirsa, ikkinchi tomonidan davlat byudjet daromadlarining barqaror sur’atlarda tushib turishini ta’minlaydi deb ta’kidlagan. [7]

P. Senthil Kumar va P. R. Yaashika to‘qimachilik materiallarini qayta ishlash-bu eski kiyim-kechak buyumlari va turli xil materiallarni qayta ishlash yoki tiklash uchun ishlatiladigan strategiya. Bu materiallarni qayta ishlash sanoatining rivojlanishini tushuntiradi deya fikr bildirishgan.

Xorij olimlaridan biri Li.Lin.Yang o‘z ilmiy ishlarida to‘qimachilik sanoatining hozirgi bosqichida rivojlanishining eng muhim hususiyati uning milliy xavfsizlikni ta’minaldashagi roli hisoblanadi deya fikr bildirgan. Sababi sanoat mahsulotlari nafaqat aholi tomonidan kiyim-kechak ehtiyojlarini qondirish uchun, balki aviatsiya kompleksi, avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi, harbiy-sanoat uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. [8]

To‘qimachilik sanoati(lotin.to‘qimachilik-ip,mato), yengil sanoatning eng qadimgi va eng yirik tarmoqlaridan biri bo‘lib, turli o‘simgilklar, hayvon va kimyoviy(suniy,sintetik) tolalardan foydalanib to‘qimachilik, trikotaj matolarini ishlab chiqarilgan. Aholining ehtiyojlarini qondirishda eng muhim tarmoqlardan biri bu to‘qimachilik sanoati hisoblanadi. To‘qimachilik sanoati xom

ashyoni birlamchi qayta ishlash, paxta, zig’ir. jun, ipak, to‘r, to‘qilmagan materiallar, trikotaj tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. Shu turdag'i kabi mahsulotlar kiyim-kechak va poyabzal ishlab chiqarishda, shuningdek boshqa sohalarda(mebel, mashinasozlik va b) ishlatiladi deya o‘z fikrlarini bildirishgan rossiyalik olimlar A.M.Jarov, I.K.Xmelevskiy. [9]

Mahalliy olimlardan O.A.Davronova fikriga ko‘ra “O‘zbekiston to‘qimachiligi sanoati milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i va mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi”. [10]

Ch.G.Nosirova o‘z ilmiy ishlarida to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tgan. O‘zining yirik xom ashyo bazasi, yengil sanoatning mehnat zichligi, qo‘shni mamlakatlarda nisbatan katta bozor mavjudligi O‘zbekistonda to‘qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishni salohiyatl o‘sish omillaridan biriga aylantiradi. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish, mamlakatimizda kuchli to‘qimachilik va tikuvchilik tarmog‘ini yaratish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir, deya fikr bildirgan. [11]

Tadqiqot ishida chizmalar, statistik tahlil, guruhlash va taqqoslash usullari, kuzatish va tahlil usullaridan keng foydalanildi. Mamlakatimiz to‘qimachilik salohiyati muhokama qilinib, milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati o‘rganib chiqilgan.

Natijalar. Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati mamlakatimizda keng tarqalgan va eng ko‘p ish o‘rinlari bilan ta’milangan sohalardan biri bo‘lib, 6

mingdan ortiq korxona va 570 ming kishini ish bilan ta'minlamoqda.

Bugungi kunda davlat statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizda 69,4 mingta sanoat korxonalarai faoliyat yuritmoqda. Jami faoliyat yuritayorgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi 14,3 foizni tashkil qiladi. Shundan, 94,2 foizini ishlab chiqarish sanoat sanoati tashkil etadi.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilning yanvar – dekabr oylarida mamlakatimizda sanoat korxonalari tomonidan 655,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi 106,0 foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 553,3 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 84,4 foizni tashkil etdi. Respublikada 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan

jami sanoat ishlab chiqarishdagi yuqori ulush Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 18,9 foizni tashkil etdi. Navoiy viloyati 15,5 foiz, Andijon viloyati 11,2 foiz va 5,6 foiz Farg'ona viloyati hissasiga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik sanoati bugungi kunda asosiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri hisoblanadi. 2023 – yilning yanvar – dekabr oylariga nisbatan jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 12,9 foizni tashkil etgan. Bu esa 2022 – yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 6,4 foizga oshib, ishlab chiqarish hajmi 71 121,1 mlrd so'mga to'g'ri keldi.

2022 – yilning yanvar – dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 555 100 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021 – yilning yanvar – dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi 105,2 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari quyidagicha tavsiflanadi.



1-rasm: Sanoat ishlab chiqarish asosiy tarmoqlari (trln, so'mda)

Sanoat ishlab chiqarishning tarkibidagi eng katta hissa ishlab chiqaradigan sanoatga to'g'ri kelib, 458 200 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,2 % ni tashkil etdi. Keyingi yirik tarmoqlar Elektr,gaz bug'

bilan ta'minlash va havoni kondinatsiyalash 52 500 mlrd so'm va Tog' – kon sanoati 37 500 mlrd so'mni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 2 900 mlrd so'm hissa

qo'shgan bo'lib, umumiy sanoat ishlab chiqarishining 0,5 % dan ko'prog'ini tashkil qilgan.

Munozara. O'zbekistonda sanoatda ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim strategik soha bo'lib, aholini ish bilan bandligini oshirish hamda mamlakatning sanoat salohiyatini xalqaro darajaga ko'tarishda o'z hissasini qo'shmaqda. Yangi ishlab chiqarish tehnologiyalari joriy qilinishi, yuqori samarali zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va samarali boshqaruvni qo'llash orqali mehnatning yuqori samaradorligini, sanoat ishlab chiqarish hajmini o'sishini ta'minlaydi. Mamlakatimizning iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoatning asosiy yo'naliishlari hajmi indeksini yillar kesimida quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.(1-jadval)

O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishi (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m	38119,0	47587,1	57552,5	70634,8	84011,6	97598,2	111869,4	148816,0	235340,7	322535,8	368740,2	451633,9
Ishlab chiqaradigan sanoat	28742,8	37295,3	44347,0	56068,7	68225,7	78492,3	91483,0	120686,9	189642,6	254860,9	305928,6	375028,7
To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	4845,5	6736,9	7672,9	8898,3	10839,5	13241,7	13335,3	16763,3	24835,2	29946,6	36713,9	51507,0
Kiyim ishlab chiqarish	575,8	795,2	996,8	1165,8	1308,7	1585,3	4318,5	6108,2	7732,2	9165,8	10402,4	13284,1
To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi, %	16,8	18,06	17,3	15,8	15,9	16,9	14,6	13,9	13,1	11,7	12	13,7
To‘qimachilik mahsulotlarini jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi, %	12,7	14,1	13,3	12,6	12,9	13,6	11,9	11,3	10,6	9,3	9,9	11,4

Uzoq muddat paxta tolasini eksport qilish bilan shug’ullangan mamlakatimizda, 2020-yildan boshlab paxta tolasini ichki qayta ishlash imkoniyatlari paydo bo’ldi. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yillar kesimida faqat o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan va 2010-2021-yillarda 10,6 barobar o‘sishga erishgan va har yili jami sanoat tarkibidagi ulushi o‘rtacha 11,97 foizni tashkil etgan (1-jadval). Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2010-yilda 16,8 foizni tashkil etib, 2011-yilda 18,06 foizgacha oshgan. 2012-yildan boshlab to‘qimachilik jami ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlaridagi ulushining pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lib, 2019-yilda 11,7 foizga to‘g‘ri kelgan. To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 2020-2021-yillardagi o‘rtacha o‘sishi mos ravishda 12 va 13,7 foizni tashkil etgan. To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yillar davomida o‘sishga erishgan bo‘lsada, sanoat mahsulotlari hajmida to‘qimachilik mahsulotlarining ulushi pasayib borgan.

Mamlakatimiz to‘qimachilik sanoatida tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalarni jalb qilish orqali tarmoqning barqaror rivojlanishini ta’minlash, jahon bozorida raqobardoshligini oshirish uchun milliy brendlarni shakillantirish, mamlakat to‘qimchilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish orqali sanoat mahsulotlarini jahon talablari darajasiga yetkazishga erishish mumkin hisoblanadi.

Davlat statistika agentligi bergen ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekiston Republikasi qiymati 3,1 mlrd AQSH dollarlik to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan. Bu ko‘rsatkich umumiyligi eksportning 12,5 % ini tashkil qilgan. To‘qimachilik mahsulotlari 65 ta davlatga eksport qilingan bo‘lib, asosiy mahsulot eksport qilingan davlatlar bu XXR, Rossiya, Qozog’iston, Turkiya, Korea Republikasi, Germaniya, Qirg’iz Respublikasi, Turkmaniston, Fransiya va Avg’oniston hisoblanadi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (41,0%), kalava – ip (41,1%) ulushni egallagan. Yil boshidan 639 turdagি to‘qimachilik mahsulotlari eksport qilingan. To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi o‘tgan yilga nisbatan sezilarni darajada oshgan. To‘qimachilik mahsulotlari tarkibida :

- Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari – 1,3 mlrd;
- Kalava-ip – 1,3 mlrd;
- Trikotaj mato – 306,6 mln;
- Gazlamalar – 176,5 mln;
- Paypoq mahsulotlari – 61,1 mln ni tashkil qilgan.

Mamlakatimizda to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishda eng ko‘p kata ko‘rsatkich Ip kalava mahsulotlari hisoblanadi. Bundan tashqari Ip gazlama, trikotaj mahsulotlari, xom ipak iplar, tikuv mahsulotlari, paypoq, poyafzal va gilam mahsulotlari yuqori suratlarda ishlab chiqarilmoqda.(2-jadval)

2-jadval. To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022
Ip kalava, ming tonna	528,6	614,8	789,0	662,3
Gazlamalar-jami, mln.m²	470,4	607,8	590,8	590,4
Ip gazlama	332,0	405,5	407,5	413,6
Junli	0,07	0,02	0,2	0,6
Ipak gazlama	4,1	7,8	12,3	20,4
Trikotaj mahsulotlari mln. Dona	266,1	286,0	481,3	455,6
Xom ipak iplar, tonna	2 166,9	1 648,0	3 753,3	4 709,6
Trikotaj polotnosi, ming tonna	54,1	97,3	75,1	95,2
Tikuv mahsulotlari, mlrd so‘m	3 216,8	4 080,9	4 679,8	4 424,1
Chulki-paypoq mahsulotlari, mln.juft	126,4	155,0	219,8	206,2
paypoq	114,3	131,5	176,7	182,4
Poyabzal, mln. Juft	21,6	27,6	26,5	24,0
Gilam va gilam mahsulotlari, ming m ²	43 917,2	54 445,7	66 339,4	60 133,1

Mamlakatimizda ip kalava mahsulotlari 2019-2021 yillar davomida o‘sish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lsada 2022-yilda pasayish kuzatilgan bo‘lib qariyb 17% ga kamaygan. Gazlama mahsulotlari tarkibida Ip gazlama 2019-yildan 2022-yilgacha 1,2 barobar o‘sishga erishgan bo‘lsa, trikotaj mahsulotlari uch yilda 2019-2021 yillarda 1,8 barobar o‘sish kuzatilgan. Ammo 2022 yilda biroz pasayishni ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatimizda so‘ngi yillarda kiyimkechak mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

o‘sib bormoqda. Paypoq, poyafzal va boshqa kiyim mahsulotlari va bundan tashqari gilam ishlab chiqarish hajmi yillar davomida deyarli pasayish kuzatilmagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarishni oshirish uchun bir qator muhim omillar mavjud. Bular orasida kam mehnat xarajatlari, ya’ni mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish, xom ashyoga oson kirish imkoniyatlarini yaratish, qulay davlat siyosatini ta’minlash

va rivojlangan infratuzilmani yaxshilash zarur.

Hozirgi vaqtida ko‘plab rivojlangan mamlakatlar sun‘iy tolalarni ishlab chiqarishga e’tibor qaratmoqda. Shunday qilib, biz ham paxtaga yo‘naltirilgan sanoatdan sun‘iy tolalar ishlab chiqarishga o‘tish va sintetik materiallarga ortib borayotgan talabni qondirish maqsadida zarur loyihalarni amalga oshirishimiz zarur. Sun‘iy tolalar ipakning qisqarishiga qarshi kurashishda, kuya o‘tkazmaydigan xususiyatlarga ega bo‘lishi va saqlashni osonlashtirishi bilan ajralib turadi.

NOU-XAU, ya’ni to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarishning siri, hali keng tarqalmagan va ko‘plarga ma’lum bo‘lmagan

yangi ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish-texnologik, boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy va tijorat bilimlari majmuini anglatadi. Ushbu bilimlarni amaliyotda qo‘llash tajribalarini amalga oshirish orqali, mehnat salohiyatini mustahkamlash va ishchi kuchimizni boshqa to‘qimachilik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bilan tenglashtirish uchun zarur loyihalarni yaratish lozim.

Bu jarayonlar, to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullaridan foydalanish, sanoatni diversifikatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1) S. Yusupov, R. Isayev, S. Yuldashev, O. Davranov. Iqtisodiyot va menejment. – T.: “Factor books”, 2021, – 611 bet.
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo’ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to’g’risidagi PF-60 sonli farmoni
- 3) ЛЕГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ КАК ВАЖНЕЙШАЯ ОТРАСЛЬ ПРОИЗВОДСТВА ТОВАРОВ НАРОДНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯРоссийская таможенная академия (Россия, г. Люберцы).
- 4) Туркменского сельского хозяйственного университета им С.А.Ныязова. Туркменистан, город Ашгабад Текстильная промышленность в экономике. <https://www.britannica.com>.
- 5) TO‘QIMACHILIK SANOATI KLASTERLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY VA ILMIY ASOSLARI Oriental Renais-sance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(6), June, 2023.
- 6) Soliq yukini optimallashtirishning xorij tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari ORCID: 0000-0001-9993-8629
- 7) “TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR” Otaxanova Umida Olim qizi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi
- 8) Micro-macro quantification of the internal structure of granular materials(Li.Lin.Yang,2009)



- 9) Большая советская энциклопедия. В 30-ти т.. – 3-е изд.. – М. : Совет. Энцикл., 1969 - 1986. Ил., карт. А. М. Жаров, И. К. Хмелевский.
- 10) O.A. Davronov. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali. №1, yanvar-dekabr, 2016. –1 b.
- 11) Ch.G. Nosirova. O‘zbekiston respublikasi to‘qimachilik sanoatini rivojlanishdagi asosiy parametrelarni va tendensiyalarni o‘rganish. Journal of advanced research and Stability // Volume: 02 Issue: 07 July -2022. [Www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz).